



SCIENCE BOX

# AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI

Jild: 03 Nashr: 12 | Dec - 2024

## QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI HOLATINI BAHOLASH VA MONITORING QILISHDA MASOFADAN ZONDLASH USULLARINING QISQACHA TAVSIFI

**M. X. Masharipov, U. V. Maxmudov**

*Don dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Xorazm ilmiy tajriba stansiyasi*

**G. Q. Raximova, K. O. O‘rinova**

*Urganch davlat universiteti*

**Annotation.** Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik ko‘rsatkichlari muhim hisoblanadi. Mazkur sharh maqolada ekinlarning hosildorlik ko‘rsatkichlarini baholash va monitoring qilishda masofadan zondlash usullarining qisqacha tavsifi berlgan.

**Kalit so‘zlar:** spektr, NDVI, Modis, Sentinel-2, DSSAT, R-studio, masofadan zondlash.

### Kirish

Qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olishda tuproqning oziq moddalar bilan ta’milanganligi muhum omil hisoblanadi. Bundan tashqari ekinlardn yuqori hosil olishda qo‘sishimcha mineral o‘g‘itlardan ham foydalnib ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Ayniqa mineral o‘g‘itlardan foydalanib ekinlardan yuqori hosil olishda azotli o‘g‘itlarning ahamiyati kattadir. Biroq ekinlarning azotga bo‘lgan talabini qondirishda va tuproqning ozuqaviy holatini real vaqtida monitoring qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqa bu jarayonni real vaqtida aniqlash mineral o‘gitlardan samarali foydalanish va ularni qo‘llash uchun muhim asos bo‘lishi mumkin. Dunyo bo‘yicha ekinlarning azotga bo‘lgan talabini real vaqtida aniqlash borasida juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan.

Xitoyning Xenan provinsiyasida turli kuzgi bug‘doyн navlarining har xil azot miqdorining hosildorlikka ta’sirini o‘rganish bo‘yicha dala va laboratoriya tadqiqotlari Zhang va boshqalar tomonidan olib borilgan [9]. Tadqiqot davomida ekinlarning spektral aks etishi, o‘simlik tarkibidagi azoti va tuproq azoti sinxron ravishda o‘lchandi. Shu bilan birgalikda, tuproq azoti va o‘simlik tarkibidagi azot kontsentratsiyasi o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqligi tahlil qilingan va mavjud spektral ko‘rsatkichlari hamda bir necha turdagи giperspektrallar, jumladan normallashtirilgan farq spektral indekslari (NDVI), nisbat spektral indekslari (RVI) va spektral farqlar bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Spectral aks ettiruvchisidan foydalanib tuproq – N tarkibi 350 dan 1 050 nmgacha bo‘lgan to‘lqin uzunligining barcha kombinatsiyalari hisoblab chiqilgan. Olingan natijalarga asosan tuproqning umumiyligini azot miqdori, NO<sup>3-</sup> – N miqdori va spektr ma’lumotlari kuzgi bug‘doyning turli o‘sish bosqichlarida (tuplash, gullah va

ISSN: 2181-3450


<https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot>


pishish) tahlil qilinib, NDVI (FD747, FD699) tuproqning umumiyligi azotini monitoring qilish va  $\text{NO}_3^-$  – N tarkibini modellashtirish uchun eng yaxshi ko'rsatkich ekanligini ko'rsatgan.

Shunday qilib, bug'doy o'sishi davrida tuproq azot bilan oziqlanish holatini baholash uchun ekin spektroskopiyasidan foydalanish mumkin va NDVI (FD747, FD699) tuproqning umumiyligi azotini va  $\text{NO}_3^-$  – N tarkibini baholash uchun samarali spektral parametr sifatida ishlatalishi mumkin.

Keying yillarda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi qihloq xo'jaligi sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, suniy yo'ldosh ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini bashorat qilish keng ommolashmoqda. Bunday ishlarni amalga oshirishda avvalambor ekin ma'lumotlari talab qilinib, spektrometriya imkoniyatlaridan keng keng foydalanilmoqda. Gollandiyada MAC Europe 1991 kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan AVIRIS nomli spektrometrining ma'lumotlari asosida o'simliklar hosildorligi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, dalada olingen spekter va laboratoriya tahlil ma'lumotlari umumiyligi tafovutning 96,8% ni tashkil etadi. Dala sharoitida olingen spektr ma'lumotlari o'simlik barg xlorofill tarkibi to'g'risida aniq ma'lumotlar bergan [2].

Resurslardan samarali foydalanishda hudud iqlimi va tuproq sharoitiga xos ekin navlarini o'rganishni talab etadi. Bu borada respublikamizda Don dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Xorazm ilmiy tajriba stansiyasida olib borilayotgan nav sinash tadqiqot ishlari alohida o'rinni tutadi. Stansiyada davlat reyestriga kiritilgan va chetdan olib kelingan jami 45 ta kuzgi bug'doy navlari hudud iqlim sharoitiga mosligi o'rganilmoqda. Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra Modis va Sentinel-2 sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari STARFM algoritmi asosida integratsiya qilinadi. Kuzgi bug'doy navlarini aniqlashda random forest algoritmi qo'llangan holda kartografik tasniflanadi. Bug'doy navlari hududning tuproq mexanik tarkibi yengil qumoq maydonlarda yetishtirilib, ularning barg sathi va spektral xossalari o'rtasidagi korrelyasiyon bog'liqlik bo'yicha chiziqli tenglamasi ishlab chiqiladi. Bu esa kuzgi bug'doy navlarining hududga mosligini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xorazm vohasi tuproq iqlim sharoitida kuzgi bug'doy navlari hosildorligini geoinformatsion algoritmlar, aerokosmik va kartografik uslublarda modellashtirish va baholash bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda [6]. Jumladan M.Sultanov va boshqalar tomonidan Xorazm viloyati qishloq xo'jalik ekin yerlarini optimallashtirish va ularning hosildorligini oshirish bo'yicha geoinformatsion, aerokosmik va kartografik modellashtirish va ulardan foydalanishning metodikasi ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot davomida dala kuzatuvlari, laboratoriya tahlili, GPS o'lchashlar, geoinformatsion algoritmlar, DSSAT ekin modeli, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini Google Earth Engine platformasida tahlili va agroekologik omillarning o'zaro regression bog'liqlik modellari R-studio muhitida amalga oshirilib, kartografik tasvirlar ArcGIS-pro dasturi yordamida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasiga ko'ra dala tadqiqot namunalarini sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari bilan o'zaro bog'liqligini klasterlash va geoinformatsion algoritmlarning ekin modellari integratsiyasi asosida qishloq xo'jalik ekinlari hosilini hududiy baholashning kartografik uslubi ishlab chiqilgan [10, 11, 12].

Masofadan zondlash texnologiyasi (Remote Sensing) – ekinlarning holatini baholash va minitoring qilishda samarali vosita hisoblanadi [1].

Qishloq xo'jalik ekinlarini masofadan zondlashning bir qancha usullari mavjud:

- Optik zondlash usuli – infraqizil, qizil va ko'rindigan yorug'lik to'lqinlar yordamida ma'lumotlarni qayd etishga asoslangan. Bu usul NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) kabi o'simlik vegetatsiya davridagi ko'rastkichlari yordamida ekinlarning yashillik darajasi, o'sish jarayoni va





SCIENCE BOX

# AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI

Jild: 03 Nashr: 12 | Dec - 2024

holati aniqlashga yordam beradi. Ushbu usullar ekinlarning zararlangan joylarini aniqlash, sug‘orish samaradorligini baholashda qo‘llaniladi [3].

- Termal zondlash usuli – tuproq va o‘simliklarning haroratini o‘lchash orqali namlik miqdorini va suv taqsimotini aniqlaydi va suv taqchilligi va stress holatlarini baholash qo‘llaniladi [4].
- Radar zondlash (SAR – Synthetic Aperture Radar) usuli – bulutlar va qorong‘ulikda ham ishlay oladigan radar signallari asosida ma’lumotlar yig‘adi. Tuproq namligini aniqlash, ekinlarning o‘sish bosqichlarini baholashda qo‘llanilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi [3].
- Giperspektral zondlash usuli – 100 dan ortiq spektral kanallar orqali ma’lumot to‘playdi va tuproqning oziq moddalari va o‘simliklarning xlorofill miqdorini aniqlashda qo‘llaniladi [7].

Qishloq xo‘jaligida masofadan zondlashdandan foydalanish orqali – ekinlarning holatini monitoring qilish, ularning rivojlanish bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatishga imkon beradi. Bu esa zararkunandalar, kasalliklar va stress holatlarini erta aniqlab, ularga qarshi kurashda to‘g‘ri hulosa chiqarishga zamin yaratadi [8].

Bundan tashqari masofadan zondlashdan qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini bashorat qilish, sun‘iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida vegetatsiya ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqiladi va hosildorlik bo‘yicha aniq prognozlar beriladi [5].

Shu biln birgalikda, suv resurslarini boshqarish, tuproqning namlik darajasini aniqlash, sug‘orish jarayonlari optimallashtirish imkonini beradi [4].

Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda tuproq muhim omil hisoblanib, tuproqdagi azot, fosfor va boshqa oziqa moddalari tarkibini aniqlashda ham masofadan zondlash texnologiyalarinig roli kattadir.

## Xulosa

Keyingi yillarda ekinlarning holatini baholash va monitoring qilish uchun masofadan zondlash usullari keng qo‘llanilmoqda. Bunday ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga yerdan samarali foydalanish imkonini beradi. Umuman olganda, tuproqning spektral aks ettirilishi tuproqning fizik va kimyoviy tarkibiga bog‘liq. Ko‘pgina hollarda, ekinlarning holatini va ulardagisi azot va xlorofill miqdorini masofadan zondlash ma’lumotlari bo‘yicha baholash ularning ko‘rinadigan va yaqin infraqizil nurlarda spektral aks etishiga asoslanadi. Qishloq xo‘jalik ekinlarini baholash va monitoring qilish uchun avvalambor dala kuzatuv va laboratoriya tahlili ma’lumotlari bazasi talab qilinadi.

Tuproqning kuzgi bug‘doy ekinlarining spektral aks ettirilishiga ta’siri ko‘rinadigan to‘lqin uzunliklari 350-1050nm orasida eng aniq namoyon bo‘ladi. Kuzgi bug‘doy rivojlanishining barcha bosqichlarida minimal 750 nm dan keyin kuzatildi. O‘simlik ko‘rsatkichlarining tuproq foniga sezgirlik diapazoni tuproq turiga qarab o‘zgaradi.

## Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Campbell, J. B., & Wynne, R. H. (2011). Introduction to Remote Sensing..
2. Clevers, J. G. P. W. (1999). The use of imaging spectrometry for agricultural applications. ISPRS Journal of Photogrammetry and Remote Sensing, 54(5–6), 299–304. [https://doi.org/10.1016/S0924-2716\(99\)00033-7](https://doi.org/10.1016/S0924-2716(99)00033-7)
3. Jensen, J. R. (2007). Remote Sensing of the Environment: An Earth Resource Perspective..

ISSN: 2181-3450



<https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot>





SCIENCE BOX

# AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI

Jild: 03 Nashr: 12 | Dec - 2024

4. Khanal, S., Fulton, J., & Shearer, S. (2017). An overview of current and potential applications of thermal remote sensing..
5. Kross, A., McNairn, H., Lapen, D., Sunohara, M., & Champagne, C. (2015). Assessment of RapidEye vegetation indices...
6. Matqurbanov, T. R., Sultanov, M. Q., & Jumaniyazova, N. B. (2023). Oziq-ovqat xavfsizligi : global va milliy muammolar V xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. 256–259.
7. Thenkabail, P. S., Lyon, J. G., & Huete, A. (2018). Hyperspectral Remote Sensing of Vegetation.
8. Zhang, C., & Kovacs, J. M. (2012). The application of small unmanned aerial systems..
9. Zhang, J., Wei, Q., Xiong, S., Shi, L., Ma, X., Du, P., & Guo, J. (2021). A spectral parameter for the estimation of soil total nitrogen and nitrate nitrogen of winter wheat growth period. Soil Use and Management, 37(4), 698–711. <https://doi.org/10.1111/sum.12639>
10. Султанов М.К., Матқурбонов Т.Р., Рахимова Г.К. Сунъий йўлдош маълумотлари асосида қишлоқ хўжалик экинлари мониторинги. Худудларнинг барқарор ривожланишини геоахборот жиҳатдан таъминлаш. Республика илмий-амалий конференция, Тошкент 2022. 194-197 б.
11. Султонов, М., Маткурбонов, Т., & Сафаров Э. Экинлар ҳосилдорлигини баҳолашда юқори аниқликдаги синтетик сунъий йўлдош тасвириларининг қўлланилиши. Агро-илм, Тошкент 2023. 7(2), 17-19 б.
12. Султонов, М., Маткурбонов, Т., Рузимов, С., & Э, С. (2023). Экинлар ҳосилдорлик қўрсаткичларини прогноз қилишнинг ёруғликдан самарали фойдаланиш модели. Агро-илм, Тошкент 2023. 80-82 б.

ISSN: 2181-3450



<https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot>

